

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

**“Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirish
yo'llari (o'qish darslari misolida)” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich sinf va sport tarbiyaviy
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs
talabasi **Salohiddinova Z.**_____

ILMIY RAHBAR:
o'qituvchi O.Ergasheva

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “ _____ ” _____2013 yil

TERMIZ – 2013

REJA:

KIRISH

I-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

I.1. O'quvchilar aqliy tarbiyasini shakllantirishda Sharq allomalari qarashlaridan foydalanish.

I.2. O'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni.

II-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O`QUVCHILARIDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI.

II.1. O`qish darslarida aqliy tarbiyani shakllantirish texnologiyasi

II.2. Sinfdan tashqari o`qish darslarida aqliy tarbiyani shakllantirish yo'llari.....

XULOSA VA TAVSIYALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi O'zbekiston mustaqilligi tufayli mamlakatimiz xayotida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz qayta tiklanib, buyuk allomalarimiz Axmad Yassaviy, Naqshbandiy, al-Buxoriy, Amir Temur, Ulug'bek kabi aql-zakovatli, buyuk siymolarning xayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining aql-idroki, milliy urf-odatlarini, ayniqsa ma'naviyatimizning asosi bo'lgan insoniy fazilatlar qayta tiklanmoqda. Yangi adolatli jamiyat qurish uchun ta'lim-tarbiya sohasi haqidagi bilimlar chuqurlashtirilmoqda.

Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov "Fidokor" gazetasi muhbirining savollariga "Donishmand xalqimizning mustaxkam irodasiga ishonaman" mavzusidagi javoblarida: "Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga kata e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashga asoslanadi",- degan edilar.

Insonni ulug'lash, uning qadriga yetish, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni aql-idrokli, odobli qilib tarbiyalash, ularni kamolotga yetkazish sohasida Respublikamizda bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda.

Dunyo, inson, aql-zakovat, ma'naviyat- bular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Dunyo bunyod bo'libdiki, inson dunyo yuzini ko'ribdiki, o'zini inson sifatida anglabdiki, u o'zini borliqning eng mukammal mavjudoti sifatida aql-zakovati bilan tanib keladi. Inson ongi, tafakkuri va ma'naviyati tufayli shunday ustunlikka egadir. Inson dunyoga ma'lum bir maqsad bilan kelmaydi. U o'zligini idrok etgandan so'ng hayotda yashashdan ma'no izlaydi va shu narsa uning hayoti mazmunini tashkil etadi. Insonlar bor, dunyoga keladilaru ketadilar, ulardan nom-nishon qolmaydi, hayotning ma'nosiga, qadriga yetmaydilar. Insonlar bor – mana shu kelishi bilan ketishi o'rtasidagi "umr" deb atalmish vaqtga chaqmoqday chaqnab, o'zlarining yorqin izini qoldiradilar. Bu iz o'chmasdir. Mana shunday aql-zakovati bilan o'zidan keyin yaxshi ot qoldiruvchilar ma'naviy yuksak insonlardir. Ma'naviy

komil insongina shunday yuksaklikka, avlod-ajdodlar qalbida zamonlar osha, asrlar osha yashashday sharafga sazovordir.

Demak, inson o'z hayoti va faoliyatini mazmunli o'tkazish uchun avvalo o'zini o'rab turgan borliqni bilishi, yuksak aql va tajriba egasi bo'lishi lozim. Chunki inson aqli va uning hayotida muxim o'rin tutishi, aql-idroktufayligina inson donolik, teran fikr, rostgo'ylik, to'g'rilik, uzoqni ko'ra bilish, nafsning ko'yiga tushmaslik kabi hususiyatlarni amalga oshirishi mumkin. Xalqimizning "Aql insonning ko'rki", "Aql suvdan tiniq, oynaday ravshan" kabi naqlar bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham aql inson uchun g'oyat oliy ne'matdir. Aql bilan ilm-ma'rifat egallanadi, kasb xosil qilinadi, dunyo sirlari o'rganiladi. "Aql- yurak ichidagi nur, bu nur bilan haq yoki noxaq bilib olinadi", "Aql- jonning xayoti, jon esa jasadning hayoti, tan esa jasadning hayoti!", "Kishining nafi aqldan ustun bo'lsa, undan odamning hayvondan farqi yo'q".

Aql kishining o'z irodasi, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy xaqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai-nazardan amal qilishdir.

Aql insonlarning piri komili, murshidi, yagonasidir. Rux ishlovi, aql boshlovchidir. Inson aqli ila din va e'tiqodni mahkam qaladi, shariat hukmlariga bo'ysunadi. Insonlarning do'sti uning aqlidir. Dushmani esa uning nodonligidir. «Ollox eng g'azab qilgan kishi ahmoqdir. Chunki u eng aziz narsadan maxrumdir». Olimlarning fikricha, aql ikki turli bo'ladi.. Insonni hayvondan ajratib turadigan tug'ma aqli **tabiiy va kasbiy** bu tabiiydir. Inson tabiatdagi aqlni o'tkirlash va o'stirish faoliyati bu kasbiydir. Bu esa aqlni ishlatish, tajriba va ilm olish bilan xosil bo'ladi. U aqlni rivojlantirish uchun ham xar bir kishi xayotdan tajriba orttirish va ilm ma'rifat o'rganishi zarur, xar kimki, aqlga oshno bo'lsa, u jamiki ayblardan poklanadi, xaqiqatni, anglab, kamolotga yetadi.

Abu nasr Forobiy yozadi: "Aqlli deb shunday kishini aytamizki, unda o'tkir zexn, idrok bo'lishi bilan birga u fazilatli ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini

saqlashga va tortishga qaratgan bo'lmog'i lozim. Shunday odamnigina aqlli va butun fikr yurituvchi deb atash mumkin".

Bolalarning aqlli bo'lishida oila, maktab, keng jamoatchilikning ta'siri kattadir. Aqlli bolalar qaerda bo'lmasinlar doimo extiyotkorlik bilan bilim va tarbiyali ekanligini namoyish etadilar. Ularni ko'rgan, suxbatida bo'lgan kishilar aqliga tahsin qilib rahmat aytadilar. Shu o'rinda 1447 yili Taft shahrida 5-6 yoshli Alisherning mashxur olim, tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo'lgan uchrashuvini misol sifatida keltirish maqsadida muvofiqdir.

Bola mo'ysafidning savollari burro javob berar edi. Uning o'zini tutishi, odobi mo'ysafidga yoqib tushdi.

-Men chaqirganimda o'rtoqlaring qochib ketdi. Sen esa xuzurimga kelding, so'roqlarimga yaxshi javob berding. Shuning uchun senga raxmat, umring uzoq bo'sin, boshing omon bo'lsin. Olim, fozil, bo'lib, yaxshi obro'ga erishgaysan, - mo'ysafid uni duo qildi.

Bundan ko'rinib turibdiki, aqlli bolalar hamma joyda kamolu-ta'zim bilan salom beradilar. Odob bilan munosabatda bo'ladilar.

Xaqiqatdan ham, aqlni ishlatgan kishi hayotida faqat ezguliklar qiladi va ezgulik ko'radi.

Lekin shuni aytish joizki, aql, zakovat jihatdan yetuk bo'lmagan inson hech qahon o'z Vatanini, o'z dinini, eng asosiysi o'zligini anglay olmaydi, o'zligini anglamagan inson esa manqurtga aylanib qoladi. Bu esa ertangi porloq kelajagimizning halokatidir. Bizning bu boradagi eng asosiy vazifamiz yoshlarni ma'naviy barkamol, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, yurt istiqboli uchun qayg'uradigan komil insonlarni tarbiyalashimiz, ularni kamol zarur. Zebo, yurtboshimiz I.A.Karimov aytganidek: «Ilm, ma'rifat biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q yo'qolmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina oldimizga qo'ygan maqsadimizga erisha olamiz». Yurtboshimiz I.A.Karimov aytganlaridek, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Shuning uchun ham komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasideb e'lon qilganmiz.

Komil inson deganda, biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. Uxar bir narsani aql, mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi.

Darhaqiqat ilm-ma'rifalilik kuch-quvvat manbai, qalbgga nur, o'ziga ziyo bag'ishlaydigan buyuk ne'matdir. Shu sababli ham inson hayotda qunt bilan ilmni o'rganishi tufayli aql-zakovati yuksaladi, baxtli hayot uchun kurashadi.

Bizga ma'lumki, inson hayoti uchun muhim bo'lgan ilm hikmatlarini o'rganishda ota-bobolarimizning faoliyati va ularning yoshlarga ko'rsatgan g'amxo'rliklari beqiyosdir.

Xalqimiz orasidagi quyidagi o'g'itlar insonlarni ilm-ma'rifatga da'vat etuvchi buyuk kuchdir.

Inson uchun aql, eshik ochuvchi, axloqiy yo'l ko'rsatuvchidir. Yetuk axloq va odob insonning ziynati, donolarning fazilatidir. Aqlli kishi ahloqli bo'lsagina, xalqiga, mamlakatiga, yoru do'stlariga naf keltiradi. Alisher Navoiy o'zining aqli, ibratli axloqi, odobi bilan mamlakatiga, xalqiga hech qachon so'nmaydigan buyuk meros qoldiradi. U o'zi hayot bo'lgan davrlardayoq, aqli va axloqi bilan xalqiga, mamlakatiga ko'p foyda keltirgan. Aqliy tarbya insoniyat paydo bo'lgandan boshlab tarbiyaning ustuvor vazifasi bo'lib kelgan. Pedarogika fanlari nazaruotchi olimlari S.Rajapov, S.Temurova, S.Nurmatova, B.Mirzahmedova, B.Adizov, R.Og`aevlar tomonidan aqliy tardiyani ng shakllanish usullari va uni amalga oshirish tizimi aqliy tarbiyani shakllantirish to`g`rlsdagi fikrlari mavzuning o`rganilganlik darajaslni belgilaydi

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'yekti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirish jarayoni. **Bitiruv malakaviy ishning predmeti.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari, vositalari. **Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi.** Agar:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani, ularning yoshiga, indivisal hususiyatlaiga qarab olib borilsa.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishning pedagogic asoslari o'rganilsa
- Boshlang'ich sinf oquvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirish usullari vositalari shakllari o'rganilsa.

Aqliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni, tarixiy milliy zamonaviy uzliksiz aloqada amalga oshirilsa, o'quvchilarning aqliy saloxiyati ashib boradi, dunyoqarashi kengayadi.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishda ta'lim-tarbiya tarixi tajribalarini taxlil qilishi.

-Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishning shakllari, metodlari, vositalarini belgilash va pedagogic shart-sharoitlarni aniqlash.

-Aqliy tarbiyani shakllantirishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorlik aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishning shakllari usullari vositalari aniqlandi. O'qish darslarida aqliy tarbiyani shakllantirish yo'llari ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.

O'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni shakli usullari vositalari belgilab berildi. Bitiruv malakaviy ishdagi tavsiyalardan ta'lim jarayonida unumli foydalanish mumkin bu o'z navbatida ta'lim samaradorigini oshirishga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Sharq mutafakkirlarining tarbiya xaqidagi qarashlari.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari.

Taxlil

Pedagogik kuzatuv

Anketa, so'rovlari, savol-javob, suxbat tajriba sinov.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzimini kirish, ikki bob,

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ro'yxatidan iborat.

I-Bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari.

I.1.O'quvchilar aqliy tarbiyasini shakllantirishda Sharq allomalari qarashlaridan foydalanish.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, *Abu Nasr Forbiy* inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forbiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi»². Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqqolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi»¹.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok

²Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent, Davlat nashriyoti, 1966. – 7-bet.

¹Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent, Davlat nashriyoti, 1965. – 125-bet.

qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi»².

Ibn sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga xarakat qiladi. Uning fikricha, xayot, xayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, xayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki xunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bilim, xunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Ilm fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi

Tarq qil bor narsani, jon barchidin a'lodurur,
 Jon kamoli ilmdandir, ilmdandir so'lu sog'.
 Jon agar bir shisha bo'lsa, ilm sham chirog'.
 Xikmati insonin bilgil uch chiroqda misli yog'.
 Ul agar ravshan yonar, sen ham salomat ham tirik.
 Ul chiroq so'nsa, sening ham o'lganingmasmu shu chog'.

Uning fikricha, ta'lim-tarbiya, avvalo, aqliy tarbiyani, yoshlarga ilm-fan o'rgatishni, jismoniy tarbiyani (bunga tibbiyot ilmi xizmat qiladi), axloqiy tarbiyani, nafosat tarbiyasini hamda yoshlarni ma'lum hunarga o'rgatish masalalarini o'z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya inson uchun nixoyatda muhim ahamiyatga ega. Bolaning axloqiy tarbiyasi yoshlikdan, bolalikdan boshlanishi kerak.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar

² y'zbek pedagogikasi antologiyasi G`G`Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov K., Safo Ochil. – Toshkent, o'qituvchi, 1995. – 137-bet.

tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidur,
Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish yetakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. SHuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo'luvchi ma'naviy-axloqiy sifatlarni ulug'lagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy muammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o'ziga xos jihatlari, yo'llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi.

Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari, shu jumladan, komil insonni shakllantirish kontseptsiyasining mazmunini o'rganish muayyan davrlarda dolzarblik kasb etgan. Shu bois bu yo'lda bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, navoiyshunos olimlar O.Sharafiddinov, I.Sultonov, A.Hayitmetov, N.Mallaev, T.Jalolov, V.Zohidov va S./anieva va boshqalar tomonidan samarali ravishda olib borilgan tadqiqotlar shular jumlasidan sanaladi.

Alloma tomonidan yaratilgan asarlar mazmunidan anglanadiki, ularda ilgari surilgan qarashlarning markazida inson va uning kamolotini ta'minlash g'oyasi

turadi. Mazkur o'rinda navoiyshunos olim V. Zohidov quyidagi fikrni ifoda etadi: "Navoiy ijodi hamda amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo'nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir".

Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlari xususida so'z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga to'laqonli ta'rif berib o'tadi. qanoat, sabr, tavoze (adab), o'zgalarga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning har biriga ta'rif berganidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to'ldiradi. Asarda, shuningdek, axloqiy fazilatlarining antonimi hisoblangan salbiy illatlar va ulardan qutulish yo'llari ham bayon etilgan.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi.

Yoshlarni ko'zga ulug' ko'rsatadi. Ularning yurish-turishini xalq ulug'vor biladi. O'ziga qarshi xalq tomonidan bo'ladigan hurmatsizlik eshigini bog'laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitilishidan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yo'lga soladi va odam mijoziga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan muncha natija hosil bo'lgach, kattalarga allaqachon bo'lishini ko'rarsan.

Adabdan muhabbatga bezak va pardoiz yetadi, adab tarkidan do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozu' do'stlik ko'zglasini yarqiratadi, ikki tomondan yorug'lik yetkazadi.

Tazozu'li va adablilarga ta'zim va hurmat yetadi va u urug'ni ekkan bu qimmatbaho hosilni to'plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning boshlang'ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o'rnashsa, muhabbatga xalal yetishi maholdir. Agar har ikki tomonda yaxshi xulq bo'lsa, adabi va tavozu' evaziga ta'zim paydo bo'ladi"¹.

Demak, yaxshi xulqning asosi bo'lgan odob Alisher Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo'g'ini sanaladi. g'anoat, sabr, tavoze, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) kabi ijobiy fazilatlarining odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo'lishiga urg'u berib o'tadi. Mutafakkir insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning har biriga to'laqonli ta'rif berish asosida davom ettiradi. CHunonchi, “qanoat – buloqdir – suvi olgan bilan qurimaydi.

Xazinadir – naqdinasi sochilgani bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug'i izzat va shavkat mevasi beradir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkizadi.

Kimki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo'ladi qanoat qo'rg'ondir, u yerga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog'liklardir – u yerga chiqsang dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi ehtiyotkorlik urug'ining mevasi farovonlik"¹.

Alisher Navoiy qanoatni to'ldiruvchi insoniy fazilatlar sabr, saxiylik, karam, muruvvat, himmat ekanligi ta'kidlab o'tadi. Mazkur xislatlarning bir-biriga yaqinligi hamda ularni insonning obro'-e'tiborini yuksak darajaga ko'tarishga xizmat qiluvchi xislatlar sanalishini aytib o'tadi. Ayni o'rinda sabr deb ataluvchi xislatga shunday ta'rif beradi: “Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

U o'rtoqdir – suhbatlari zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; u ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri istakka eltuvchi.

¹Alisher Navoiy, Mahbub-ul-qulub. Asarlar. 15 tomlik. 13-tom. – Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1966, 206-207-betlar.

¹O'sha asar, 203-bet.

Ulovdur – yurishi taxir, ammo manzilga yetkazuvchi; tuyadir – qadami og’ir, lekin bekatga tushirguvchi.

Achchiq so’zli nasihatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo’ladi. Badxo’r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so’ngida sog’liq yuz beradi”².

Asarda saxiylik sifatiga esa insoniylikning haqiqiy mezoni deya ta’rif beriladi. Alisher Navoiyning talqinicha, saxiylik, saxovat odamlarning mushkulini oson qilish maqsadida ularga beriladigan minnatsiz yordamdir. Alloma insonlarni birbirlariga nisbatan saxovat ko’rsatishga da’vat etadi. Himmatlilik, muruvvat, karam kabi xislatlar esa saxovatning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu fazilatlarga ta’rif berar ekan, mutafakkir quyidagi fikrlarni qayd etadi: “Saxiylik (qo’li ochiqlik) kishilik bog’ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o’lkasining to’lqinli daryosi, balki u to’lqin daryosining asl gavharidir. Yaxshilik, karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko’tarmoq va uni o’sha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam birovning mashaqqat tikani og’irligini ko’tarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va o’sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og’ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik”¹. “Muruvvat karamning urug’-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu xislatlarga ega bo’lsa izzat va hurmatga sazovor bo’ladi” kabi fikrlar asosida esa muruvvat deb ataluvchi xislatga ta’rif beriladi. Alisher Navoiy karam va muruvvat sifatlarini ota-onaga qiyoslasa, vafo va hayoni esa egizak farzandlardir deya ta’kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to’xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g’oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o’z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko’rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o’tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur»¹. Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg’u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong’usidan qutqarur, madaniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan,

¹Avloniy A. Odob b’yostoni va axloq gulistoni. – Toshkent, o’qituvchi, 1994. – 10-bet.

buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur»².

Abdurahmon Jomiy o'zidan keyin turli fan, adabiyot, jumladan pedagogikaga doir o'lmas meros qoldiradi. U o'z asarlarida, ayniqsa, nasriy yo'lda yozilgan "Baxoriston" asarida ta'lim-tarbiya masalalari xususida fikr bildirdi.

Jomiyning fikricha, ilm inson uchun xayotiga yo'l ochuvchi va uni o'z maqsadiga erishtiruvchi omildir. Ilm va hunarni yoshlikdan egallash kerak. Ilm insonga hamma narsani oson va puxta anglab olishga yordam beradi, mehnatni yengillashtiradi. Jomiy yoshlarni ilmlarni egallashga da'vat etdi:

Jomiy o'z pedagogic qarashlarida kishilarni adolat, xushmuomalalik va dono so'z bilan zulmkorlarga ta'sir etishga da'vat etadi.

Yuqoridagi misralarda qilingan nasihat da'vat garchi shoxlarga qaratilgan bo'lsa ham, xar bir ish va xolatda tadbir va aql bilan ish tutish, do'stlarga yaqinroq bo'lish, yomonlik qilishdan saqlanish, adolatli bo'lish xar bir insonga qarata qilingan xitobdir.

Jomiy manmanlik, kekkayishlarni qoralaydi, g'ururlikni nodonlikning belgisi deb biladi. Inson xatto, boshqalardan biror sifati bilan yuqori darajali bo'lsa ham, kamtar bo'lishi kerak deydi.

Jomiy manmanlik nodonlik belgisi ekanligini uqtirib, yoshlarni bu illatlardan xoli, pok bo'lishga undaydi. Jomiy to'g'ri so'zlikni inson uchun zaruriy eng yaxshi xususiyat hisoblaydi, izxor etiladigan fikr so'z va harakat bilan uzviy birlikda bo'lmog'I kerak. Shoirning ta'kidlashicha, dilkashlik, shirinso'zlik, ochiq chexralik va quvnoqlik kishilarga yaxshi, yoqimli kayfiyat baxsh etadi.

Ulug' adib o'z asarlarida hasislikni, o'grilikni keskin qoralaydi, oqilona yashash, ortiqcha boylikni muxtojlariga berish, qanoatli bo'lish g'oyalarini olg'a suradi. Jomiy deydi:

² Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, o'qituvchi, 1992. – 22-23-betlar.

Do'st tanlash, do'stlikning samimiyligi xaqidagi fikrlarida Jomiy odamlarining o'zaro munosabatlariga e'tibor berganini ko'ramiz. Ulug' mutafakkir do'stlarning do'stligi haqida:

Jomiy ilmlarni egallashda tajribaga aloxida e'tibor beradi, xayotda foydalanilmagan ilmni jonsiz, keraksiz ilm hisoblaydi. U ta'lim oldiga yosh avlodni jamiyatga, odamlarga foydali xizmat qiladigan qilib yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Jomiycha, kitob o'tmish donishmand avlodlar bilan o'z davri yoshlari o'rtasida vosita, insonga eng yaqin do'st, erta tongdagi yog'du, ustoz va marabbiydir. Jomiyning bu fikri shu jihatdan muhimki, shoir kitobning bilim manbai, insoniyat donishmandligi xazinasi deyish bilan birga, donishmandlar o'z asarlarini xayotiy tajriba va kishilar ijodi mevasi sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganliklarini aytadi. Shu sababli ham yoshlarda kitobga muhabbat, uni o'qishga qiziqish tarbiyalanishi kerak.

Jomiy kitobni bilim manbai der ekan, muallimni kelgusi yosh avlodga bu sifatlarni xosil qiluvchi ustoz sifatida ulug'laydi, ularni hammadan ko'ra ortiq hurmat qilishga da'vat qiladi. Shu bilan birga, Jomiy xar bir muallim chuqur bilim, aql, eng yaxshi axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishi kerakligini ham aytadi. Jomiy bunday ideal o'qituvchiga Aleksandr Makedonskiyning tarbiyachisi Arastuni (Aristotelni) misol qilib ko'rsatadi. Demak, aqliy va axloqiy jixatdan komil o'qituvchi xar bor o'qituvchida aqliy qobiliyatni rivoj toptira oladi.

“...Mirzo Ulug'bekning umumbashariy qadriyatlarga qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, u bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda. Buyuk ajdodimiz Ulug'bek nomi berilgan ma'naviyat maskanlari, mahallalar, ko'chalar va shaharlar juda ko'p. Yurtimizda dunyoga kelib ko'z ochayotgan har o'n chaqaloqning biriga ezgu niyat bilan Ulug'bekning muborak ismi berilyapti deb aytsak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bularning barchasi — millatimizning buyuk allomaga bo'lgan cheksiz hurmati va ehtiromlaridan darak beradi.¹”

Mirzo Ulug'bek xizmatlaridan yana biri shundaki, u avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etdi, har qanday johillik va bilimsizlikka qarshi kurashdi. U insonning imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishora qilib, yoshlarni ilm egallashga, insofli va himmatli bo'lishga, halollik va rostgo'ylikka da'vat etadi.

Ulug'bekning bilimlarini nafaqat kitoblardan, balki bevosita hayotning o'zidan ham olishni tavsiya etadi.

Ulug'bek yangi-yangi ilmiy kashfiyotlar qilishni inson uchun oliy fazilat deb biladi. U Movarounnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilmu ma'rifat dargohiga aylantiradi. Ulug'bek “Bilimga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir” degan shiorni ilgari suradi va uni madrasaning peshtoqiga yozdirib qo'yadi. Madrasada esa ilmning turli sohalarining o'qitilishiga jiddiy e'tibor beriladi.

Masalan, Samarqand madrasasida ilohiyot ilmlari: qur'on, Hadis, Tafsir, fiqh bilan birga riyoziyot, handasa ilmi, hay'at (falakiyot), tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruz, ilmi qofiya, arab tili kabi dunyoviy ilmlar o'rgatilgan.

Ulug'bek ilm fani ravnaqi uchun kurashgan, ta'lim-tarbiya rivojiga hissa qo'shgan fuqarolarni doimo rag'batlantirib, o'qituvchi-ustoz, mudarrisga hurmat ehtirom bilan qarashni targ'ib etgan. Uning mana shu say'i harakatlari tufayli ta'lim-tarbiya sifati yaxshilana bordi, madrasalarda o'qish-o'qitish ta'limni jonlantirishga katta ahamiyat berildi. Madrasadagi o'quv tizimi isloh qilinib, unda falakiyot, matematika, geografiya kabi aniq fanlarni o'qitishni joriy etdi, ta'lim mazmunining sifatini oshirdi, madrasalarda o'qish muddatini 15—20 yildan 8 yilga tushirdi.

Ulug'bek o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib yetishuviga alohida ahamiyat beradi.

Ulug'bekning fikricha, ta'lim-tarbiyada matematika, falakiyot fanlari bolaning aqliy qudrati va qobiliyatini o'stirishda muhim vosita bo'lsa, tarix va adabiyot fanlari esa bolalarning vatanparvar bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi.

¹I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T., “O'zbekiston”, 1994 y., 97—98-betlar.

Ulug'bek ta'lim-tarbiyada mudarrislarning odil va halol bo'lishiga, o'z pedagogik mahoratlarini, bilimlarini oshirib borishga, har bir mashg'ulotni yuksak saviyada o'tkazishga da'vat qiladi, ana shu bilangina o'quvchilarda bilimga qiziqish orttirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarbiyachi avval o'zini tarbiyalashi, bilim va malakalarini egallashi lozim.

Ulug'bek bolalarni tarbiyalashda uy sharoiti va ota-onalarning faoliyatiga yuqori baho beradi, ularni hayotda chidamli, mehnatsevar qilib tarbiyalash juda zarur deydi. Buning dalili sifatida "Zij" ustida ishlash paytidagi qiyinchiliklar haqida shunday deydi: "Yulduzlar jadvalini tuzish maqsadida biz kechayu kunduz ishladik, o'z mo'ljallagan maqsadimizga yetguncha biz o'zimizga qadar yaratilgan jadvallarni taqqosladik, qayta tuzdik va shu tariqa yuz qaytalab tuzatishlar kiritgach, o'n sakkiz yildan so'nggina o'z ko'zlagan niyatimizga yetdik"

Biz, asosan Davoniyning insonning haqiqiy kamolotga yetishida aqliy va axloqiy shakllanishi masalalariga to'xtalamiz. Avvalo, Davoniy va boshqa mutafakkirlarga ergashib o'zining axloqiy qarashlarini o'z salafлари kabi talqin etdi. Masalan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Miskaveyx, Nasriddin Tusiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotga erishishda adolat, donolik, shijoat singari yuksak fazilatlarga ega bo'lishi, hissiy bilim bilan bir qatorda narsa va hodisalarning mohiyatini idrok qilishni to'g'ri talqin etdi. Davoniy insonning kamolga erishishi uning boshqalar bilan munosabatiga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydi, jamiyatda, ma'lum ijtimoiy muhitda, boshqalar bilan aloqada shallanib tarbiya topgan inson o'zi yashagan jamiyatda adolat hukmron bo'lsa, unda baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi. Shuning uchun u "Axloqi Jaloliy" asarida jamiyatni adolatli — fozil shaharga va johil shaharlarga bo'ladi. Forobiy kabi Davoniy ham fozil shahar boshqaruvchisida o'nta eng yaxshi fazilat mujassamlangan bo'lishi kerak, deydi. Bular: birinchisi — hukmdor odamlarni e'zozlashi; ikkinchisi — davlat ishlarini adolatli ijro etishi; uchinchisi — hirs va shahvatga berilmasligi; to'rtinchisi — hukmdorlikda shoshma-shosharlik va g'azabga yo'l qo'ymasligi, balki shafqat va muruvvatga asoslanishi; beshinchisi — xalqning ehtiyojini qondirish uchun xudoning irodasidan kelib chiqishi; oltinchidan — xalq ehtiyojini qondirishga oid ishlarni bajarishga harakat qilishi; yettinchisi — halqqa

nisbatan odil bo'lishi; sakkizinchi — har bir ishni maslahatlashib, kengashib hal etishi; to'qqizinchisi — har bir kishini uning qobiliyatiga monand lavozimga tayinlashi, qobiliyatsiz kishilarga yuqori lavozim bermaslikni; o'ninchisi — adolatli farmonlar chiqarishi, qonunni buzishga yo'l qo'ymaslik kabilardir. Shuningdek, Davoniy hukmdorning diniy majburiyatlarga ham rioya etishi kerakligini ta'kidlagan. Ko'rinib turibdiki, adolatli shox timsoli Davoniy istagan axloqiy kamol topgan shaxsdir.

Davoniy “Axloqi Jaloliy”da ijtimoiy-siyosiy masalalarga qayta-qayta murojaat etadi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo'lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, adolatli va adolatsiz podsholar, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o'rni, aqliy va axloqiy tarbiya, insonda ijobiy xislatlarni tarkib toptirish masalalari va boshqalar shular jumlasidan.

Davoniy o'z asarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. U o'tmish olimlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridagi an'analarni rivojlantirgan holda o'z qarashlarini o'tkir ruhshunos olim sifatida ham talqin etadi, uning fikricha bola yaxshi fazilatlarini ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada his-tuyg'u juda erta shakllana boradi, u ulg'aya borgan sari ayrim juz'iy narsalarni ham ajrata boshlaydi, tana a'zolari mustahkamlanadi, narsa va hodisalarni bir-biridan ajrata boshlaydi, yaxshilik va yomonlik to'g'risida tasavvurga ega bo'la boshlaydi, aqli to'lishib, ongi o'sadi, deydi olim. Ana shu paydo bo'lgan sezgi va aql orqali tashqi dunyoni bilishi mumkin deydi.

Bola o'ta ta'sirchan va taqlirchan bo'lishini ta'kidlar ekan, olim yaxshi fazilatni ham, yomon fazilatni ham u tezda qabul qilaverishi mumkinligini alohida uqtirib o'tadi. Bola qalbini naqsh solinadigan, sur'atlarni osonlikcha tushirish mumkin bo'lgan taxtaga o'xshatadi.

Davoniyning fikricha bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo'lishi uning keyingi tarbiyasiga ham bog'liq. Chunki hayotda har kuni bola ko'radigan, muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon ta'sir etadi. Bolada har kuni kerak bo'ladigan insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik,

ota-ona va boshqa katta yoshlilarni hurmat qilish, to'g'rilik va rostgo'ylikni o'rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so'zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o'rganiladi. Shunga ko'ra bunday xislatlarni bolalarda har kuni tarbiyalanib borilishi muhim. Bunday tarbiyada esa ota-ona oldiga katta vazifalar qo'yiladi. Ota va ona bola tarbiyasida bab-baravar mas'uliyatlidir, deydi Davoniy.

Ota bolaning yaxshi fazilatlarini egallab, kasb-hunar o'rganib borishi, ilm-fanni chuqur o'zlashtirib olishi uchun moddiy asos, ya'ni kiyim-kechak, kerakli buyumlar bilan ta'minlaydi.

Ona bola tarbiyasida asosiy qiyinchiliklarni boshidan kechiruvchi sanaladi. U bolaga yashash uchun quvvat beradi, ehtiyotlab asraydi, mehr-shafqatini ayamaydi.

Bolaga oddiy axloqiy qoidalarni o'rgatish, yurish-turish, yeyish-ichish qoidalariga rioya etish, o'z qilmishi oldida javob berish mas'uliyatini his etishini tarkib toptirishda ota va ona burchlidir.

Bola tarbiyasida ota-ona bilan bir qatorda maktabga chiqqandan so'ng muallim ham javobgar sanaladi, deydi olim. Buning uchun muallimning o'zi ham yaxshi tarbiya topgan bo'lishi shart. Shu o'rinda Davoniy muallimning xislatlariga, bola va uning o'rtasidagi munosabatlarga alohida e'tibor beradi. Davoniy muallimni "Ma'naviy padar" deb ataydi. Chunki ota bolani jisman hayotga keltirib, jismonan tarbiyalasa, muallim uni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazadi, deydi olim. Ruh qanchalik badanga yaqin tursa, muallim ham tarbiya borasida ota-onaga shunchalik yaqin deb ko'rsatadi. U ota-ona tarbiyasi bilan muallim tarbiyasini taqqoslar ekan, muallimning tarbiya usuli, metodlari ota-onanikidan yuqoriroqdir, deb ta'kidlaydi. Chunki, ota-ona tarbiya usullari, metodlari bilan muallimchalik qurollanmagan bo'ladi, muallim esa tarbiya berish bilan birga ilm cho'qqilarini egallashda ham zahmat chekadi va shogirdning olgan ta'limi va tarbiyasi umrbod uning hayot yo'lini belgilab beradi, deb aytadi.

Shu o'rinda Davoniyning aqliy tarbiya haqidagi qarashlarini keltirish o'rinlidir. Chunki olimning qarashlarida aqliy tarbiya va bilimlarni egallash masalalari muhim o'rinni egallaydi. Bolalarga bilim berish yoshlikdan boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Mutafakkirlarning fikrini davom ettirgan holda Davoniy ham

inson aqlining qudratiga, uning ijtimoiy hodisalarni bilishiga, aql ilohiy ulug' bir ne'mat, haqiqat mezoni ekanligiga ishonadi. Chunki inson aql yordamida o'z hatti-harakatini, faoliyatini boshqaradi.

Davoniyning fikricha, aql ijtimoiy hayotning barcha sohasida, xoh davlat ishida, xoh ilmni o'rganishda, xoh ijobiy xulq-odob qoidalarini egallashda bo'lsin, xoh shirinsuxanlik, she'riyatda bo'lsin, faol qatnashadi. Uning bu aqidasi, ya'ni aqliy bilishga tayanishi ilm-fan, ma'rifat, ta'lim-tarbiya va axloq masalalarini talqin etishida ko'proq namoyon bo'ladi.

Davoniy shuning uchun ham bolalarga ta'lim-tarbiya berishda aqliy tarbiyaga katta o'rin beradi. Ilm kishilarni yomon odatlardan, razil ishlardan saqlaydi, ilm bilan shug'ullanish har bir inson uchun hech qachon kech bo'lmaydi, deydi Davoniy. Aflotundan: “qancha vaqtgacha ta'lim olish va ilm o'rganish yaxshi? — deb so'rabdilar. U: nodonlikning va johillikning ayb ekanligi qay vaqtgacha bo'lsa, ilm o'rganish o'sha vaqtgacha yaxshidir”¹ — deb javob bergan ekan

¹Aliqulov X., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim-tarbiya haqida. Toshkent, O'qituvchi, 1981, 36-bet.

I.2. O'quvchilarda aqliy tarbiyan shakllantirishning mazmuni.

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. **Aqliy tarbiya** shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

1. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
2. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.
3. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.
4. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish,

qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

Ilmiy qarash(yunoncha «*idea*»- *g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi*) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma'lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. **Ilmiy tafakkur**–inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

E'tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan

olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo'lish borasidagi qarashlar muhim o'rin egallagan bo'lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omil ekanligiga alohida urg'u beriladi. Chunonchi, «... ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz. Biz ana shu olijanob maqsadlarni odamlar ongiga singdirish uchun harakat qilayapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta boylik deb bilsa, hayotini shunga baxshida etsa, bilingki, odamzod yorug' kunlarga erishishi muqarrar»¹.

O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari yanada samarali sanaladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish, xususan, muayyan mavzu asosida o'quvchilarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yo'llash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'smir hamda o'spirinlarni ma'lum nazariya yoki ta'limotlarning g'oyalariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, metodologik mohiyatini ochib berish, shaxsiy fikrlarini

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi G`G`Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov R.Ahliddinov. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1999. – 57-bet.

bayon etishda asosli dalillarga tayangan holda ish ko'rishga undash ham o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda, aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda, fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini ko'ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs kamolotini ta'minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida o'quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishi xususida g'amxo'rlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olinishiga e'tibor berishlari zarur. Fan o'qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirib borar ekanlar, o'quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanish yoki ularga tayanib ish ko'rish lozimligini tushuntirib borishlari kerak.

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o'rin tutgan mafkuraviy g'oyalar va ularning mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lish o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan ta'lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e'tirof etilgan milliy istiqlol g'oyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma'lumotlar berib borish, ularga nisbatan o'quvchilarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yo'l hisoblanadi

II-bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirish usullari.

II-I. O'qish darslarida aqliy tarbiyani shakllantirish texnologiyasi

Boshlang'ich sinflarda aqliy tarbiyani shakllantirishda quyidagi metodlardan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Bu esa o'quvchilarning aqliy tafakkurining shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

Kuzatish va nazorat qilish, suhbat va hikoya, tushuntirish, rag'batlantirish va tanbeh berish, ma'qullash, ku'rgazmalilik, na'muna ku'rsatish, ishontirish, bahs, munozara kabilar.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida yozma ishlardan faqat ona tili darslarida foydalanishadi. Bunday mashg'ulotlar aksariyat hollarda, o'quvchilarning yozma savodhonligini tekshirishga qaratilgan bo'ladi (insho, diktant). Vaholanki, "o'qish", boshqa darslarda ham yozma ish turlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Yozma ishlar bolalarni mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini o'stirishga hizmat qilishi bilan birga, barcha o'quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini tekshirib ko'rishga imkon beradi. Bo'lim yoki mavzu yakunida yozma ishlar tashkil etilganda o'quvchilar darsda olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, mavzuga qayta murojaat etish orqali asar haqidagi tasavvurlari yanada teranlashadi, xotirasidan mustahkam joy oladi. Yozma ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda Vatanga nisbatan g'urur, muhabbat tuyg'ulari tarbiyalanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi yozma ish uchun o'zi mustaqil holda mavzu tanlashi ham mumkin, albatta, bu mavzular ham shoir asarlaridagi asosiy g'oyalarga qaratilishi lozim. Mavzular quyidagi mazmunda "Men sevgan shoir", "Vatanim kuychisi", "O'zbekiston – vatanim manim", "Men nechun sevaman O'zbekistonni" kabi mavzularda bu'lishi mumkin.

Demak, dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma, ijodiy ishlaridan samarali foydalanish aqliy tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Yozma ishlar "O'qish" darsida amalga oshiriladigan ishlarning rejasida ko'rsatilishi, uning maqsadi, ularga qu'yiladigan talablar aniq belgilangan bo'lishi lozim.

1. Yuqoridagi fandan yozma ishlarni uyushtirishdan oldin, o'quvchilar mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari shart.
2. Yozma ishlarni tashkil qilishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, talablari hisobga olinishi lozim.
3. Yozma ishlarni erkin mavzuda tanlash qoidasiga amal etish zarurki, bunda bola o'z imkoniyatlarini o'zi hisobga oladi.
4. Yozma ish mavzusi o'quvchini o'ziga jalb qila oladigan darajada jarangdor bulishi lozim.
5. Mazkur ishlarni amalga oshirishda xar bir o'qituvchi, eng avvalo, tashkil qilinadigan darsning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan oquvchi shaxsiga ijobiy tasir etishga intilmog'i, Vatanga muxabbat, milliy g'urur, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim.

Boshlang'ich sinflarda dars ta'limi va tarbiya ishlarining markaziy qismi hisoblanib, o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirishda, milliy qadriyatlarimiz haqida tushunchaga ega bo'lishida, axloqiy sifatlarni hosil qilishda muxim ahamiyatga ega. Ma'lumki boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "O'qish" darslari ham umumiy didaktik talablarga javob berishi, jumladan, darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga tayanish, shoir va ijodkorlarimizning asarlaridagi tarbiyaviy g'oyalardan foydalanish imkoniyatlarini izlash lozim.

Dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarqshi shakllana boradi, mustaqil fikrlashga o'rganadi, dunyoviy bilimlar bilan tanishadi va ularning uzluksizligi rivojlanib boradi. Xar bir darsning muvaffaqiyati uning oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liqdir. Qachonki, maqsad aniq va puxta, o'quvchini xar bir taraflama rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, darsning samaradorligi ta'minlanadi.

Bugungi kunda pedagogik jarayonining samaradorligini ta'minlash masalasi xar qachongidan ham dolzarb muammo hisoblanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik jarayon oldida quyidagi maqsadlarni qo'ya olishi kerak:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining faoliyati hamda milliy istiqlol negzida ifodalangan barkamol insonni shakllantirish xaqidagi fikrlardan dars jarayonida umumli foydalahish.

2. Darsda o'rganilayotgan mavzu xarakteridan kelib chiqqan holda ijodkor ilgari surayotgang'oyani aynan o'quvchi ongiga etkaza olish yo'lini tanlay bilish.

3. Dars jarayonida turli didaktik va texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish.

4. Dars loixasini mukammal tuza olish va kutiladigan natijani oldindan ko'ra olish lozim.

Bugungi kunda maktablarda sinf-dars shaklidagi mashg'ulotlardan foydalanib kelinmoqda va ularga quyilgan talablar ham o'zgarib bormoqda.darslarni qiziqarli uyushtirish uchun o'qituvchilar yangicha dars turlaridan turli-tuman interfaol usul va vositalardan foydalanishlari lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish darslarida keltirilgan asarlardan,jumladan, A.Oripov asarlaridan foydalanganda dars loixasini tuzishda o'quvchining Yoshi, individual xususiyati va darsning davomiyligiga alohida e'tibor qaratishi o'quvchilarning bilimlarini sinash va qiziqishlarini oshirish maqsadida boshqortirma, rebus, o'yin-topishmoq kabi dars samaradorligini oshiruvchi vositalardan foydalanuvshi lozim.

“Boshqotirma” (krossvord) - o'quvchilarni bilimini tekshirib ko'rish, mustaxkamlashga imkon yaratadigan didaktik vositadir. Boshqotirmalar o'quvchilar yoshiga mos holda,sodda ko'rinishda tuzib olinadi. Masalan

A. Oripovning 1-sinf “O'qish” (G'afforov T., SHodmonov E. Ehturdiyev G. O'qish kitobi. 1- sinf uchun darslik.- T.: SHarq, 2010. -41 b.) kitobida keltirilgan “ Qushcha” she'ri uchun quyidagi boshqotirma tuzish mumkin;

Bolalar, mana bu bo'sh katakchalarga undosh xarflarni quysangiz, shoirimiz

A.Oripovning sizga tanish bo'lgan sherining nomi kelib chiqadi (qushcha)

--	--	--	--	--

Jadvaldan foydalanib, o'quvchilar ikkita to'pgulni bir vaqtda aniqlaydilar,natijalarini daftarga yozadilar. Shunga o'xshash tarzda meva va

urug'larning tarqalishi, urug'larning tuzulishi, ildiz va poyani aniqlashda shuningdek, "O'simliklarning asosiylari" mavzusi bo'yicha qator darslarda o'tkaziladi.

O'quvchilar bir mashg'ulot davomida muayyan o'simlikni mustaqil aniqlashga albatta o'rgana olmaydilar. O'simliklarni aniqlashda ularni butun botanika kursi davomida o'rgatib bormoq lozim. Ular birinchi mavzuda yovvoyi va madaniy o'simliklarning organlarining, keyingi mavzularda – gullarning tuzilishi, to'pgul, meva, urug' va maysalarni, ildiz, barg, kurtak poya, daraxt shox-shabbalarining shakllarini aniqlaydilar.

Masalan, tabiatshunoslik darsida hayvonlarni yorish uslublarini egallab brogan sari u'quvchilar ishni tobora ko'proq mustaqil bajarishga u'rganib boradilar. Shunday qilib, u'quvchilarda tadqiqiy kuzatuvchanlikni shakllantirishni muhim pedagogik talablarga rioya qilgan holda amalga oshirmoq kerak, taqdim qilinayotgan o'quv materialini to'g'ri tanlash va saralash, o'quvchilarning yosh davrlari psixologiyasiga mos ravishda topshiriqlarni taqdim etish orqali amalga oshirish mumkin.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya uzluksiz, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayon bu'lib, unda barkamol shahsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Demak, pedagogik jarayonning asosiy maqsadi barkamol inson shahsini tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Bu borada u'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy vositasi bu'lgan dars jarayonining ahamiyati katta. Dars jarayonida boshlang'ich sinf u'quvchilari "Vatan", "Ona", "bstiqlol", "ustoz", "mehr oqibat", "sadoqat", "insoniylik", "orzu", "kelajak" kabi tushunchalarning mazmunini anglab, Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, kelajakka umid, orzuga intilish, ustozlarga extirom, chin insoniylik kabi ruhda tarbiyalanib boradilar. Yoki shoirning "qushcha" she'rida nima ifodalanganligini bilish maqsadida quyidagicha boshqotirma tuzish mumkin. Bu bilan o'quvchi she'rda nima ifodalanganligini xotirasida saqlab qoladi: (Bahor).

--	--	--	--	--

Boshqotirmalar dastlab u'qituvchining ku'magida yechib boriladi, bolalar ulg'ayib borishi natijasida boshqotirmalar ham murakkablashtiriladi. Ba'zan

boshqotirmalarda kalit su'zlar ham mavjud bo'ladi. Unda kalit so'z yozilgan katakchalar qalin chiziq bilan chegaralangan bo'ladi. Kalit so'zni 1-2-sinflarda o'qituvchi yordamida, 3-4-sinflarda o'quvchilarning o'zlari mustaqil holda topa bilishlari kerak.

Darslarda "O'ylab top" tipidagi vositadan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Shuningdek, bu tipdagi topshiriqlardan bo'lim yuzasidan takrorlash daralarida ham foydalanish mumkin. U quyidagi tarzda tashkil etiladi. O'qituvchi biror-bir narsa va predmetni so'z yoki topishmoq yordamida uch marta tariflaydi. Ta'riflar borgan sayin soddalashib boraveradi. Soddalashib borishi natijasida o'quvchilarning ballari ham pasayib boraveradi. Ya'ni birinchi ta'rif e'lon qilingandayoq javob topgan o'quvchilarga 3 ball, 2-ta'rif o'qilgach, javob bergan o'quvchilarga 2 ball, 3-ta'rif e'lon qilingandan keyin javob bergan o'quvchilarga 1 ball beriladi. Masalan, 1-sinf o'quvchilariga A.Oripovning "Qushcha" she'ri yuzasidan quyidagicha ta'riflardan foydalanish mumkin.

1. U uchadi.
2. Uning ikkita qanoti bor.
3. U bahor kelganda o'lkamizga qaytib keladi,
Shoxdan shoxga qo'nib, sho'x va quvnoq kuylaydi.

(Javob: qushcha)

Shu javobni topish uchun o'quvchilar o'ylaydi fikrlaydi aqlini charhlaydi.

Bu ruhiy-ma'naviy holat o'quvchilarda darsliklarda aks etgan mavzu yuzasidan o'qituvchi tomonidan tuzilgan hikoya, suhbat yoki ko'rinish tarzida, she'riy asarlarni tinglaganda, ayniqsa, asar qahramonlarining xatti-harakati hikoya qilganda sodir bo'ladi. Ma'lumki bolalik deb atalmish bu davr o'zining ishonuvchanligi, taqlidchanligi, qiziquvchanligi hamda soddaligi bilan ular hayotida o'chmas iz qoldiradi. Ular yuqoridagi voqealarni tinglaganlarida, o'sha qahramonlarga o'xshagisi keladi, o'zlarining o'yinlarida ularga taqlid qiladilar, o'quvchilar albatta xalq himoyachisi va vatanga e'tiqodli insonlar bo'lishga harakat qila boshlaydilar. Bu kabi maqsadlarni dars jarayonida amalga oshirishda o'qituvchi asosiy o'rin egallaydi. Jumladan, o'qituvchining nutqi, mimikasi, ishontirish

qobiliyatining ta'siri orqali o'quvchilar asar qahramonlarining xislat va hususiyatlarini yaqqol tasavvur qila oladilar.

Demak, o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil qilishi uchun nafaqat bilimli, balki pedagogic mahorat va pedagogik texnikani yaxshi egallagan bo'lishi lozim. U o'quvchiga qachon va qanday ta'sir o'tkazishni bilishi, shu bilan birga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijaga erishish yo'llarini izlashi lozim.

3-sinf o'qish darslarida O'zbekiston mening vatanim mavzusi bor bu mavzuni o'rganishda o'qituvchi o'quvchiarda aqliy tarbiyani shakllantirishga katta e'tibor berish kerak.

Men 16-maktabning 3-sinfida ushbu mavzuni o'rganishda quyidagi dars ishlanmasini tayyorlab amaliyotda qo'llab ko'rdim va ijobiy natijaga erishdim.

3-sinf O'qish

Mavzu: O'zbekiston – mening Vatanim.

Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsadi: “O'zbekiston – mening Vatanim” mavzusini ifodali o'qishga o'rgatish, tushunganlarini so'zlab berish malakasini shakllantirish. Milliy istiqlol g'oyasini aniq ko'rgazmalar, sahnalashtirilgan ertaklar, rivoyatlar orqali o'quvchilar ongiga singdirish. Vatan mehrini, sog'inch hissini jonli, hayotiy misollar bilan tushuntirib berish.

a) Tarbiyaviy maqsadi: Vatanni sevish uni ardoqlash, uning har bir qarich yerini ko'z qorachig'idek asrash kerakligini o'quvchilar ongiga singdirish.

Darsning jihozi: Darslik, Vatanimizning diqqatga sazovar joylari aks etgan rasmlar, tarqatma materiallar. “Vatan daraxti”, “Bahor guldastasi” guruhlar uchun tayyorlangan bayroqchalar.

Darsning uslubi: Erkin fikrlash.

Darsning turi: “Interfaol”, “aliy hujum”

Doimo qalbimiz shod,

Vatanimiz bo'lsin obod.

(o'quvchilar qalbiga vatan tuyg'usini singdirish.)

Guruhlarga bo'lib nomlar bilan ataymiz. “Lochirlar”, “Burgutlar”, “Lolalar”, “Qaldirg'ochlar”

I. Aniqlash bosqichi-10 daqiqa.

II. Anglash bosqichi-15- daqiqa

III. Fikrlash bosqichi-15-daqiqa.

O'tgan mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriq “klaster” usulida mustahkamlanadi.

Yangi mavzu: “Nima aziz dunyoda?”

Mana jonajon O'zbekistonimizning mustaqillikka erishganiga ham 22-yil to'ldi. Vatanimiz butun dunyo miqyosida o'z o'rniga ega. Dunyo xaritasida Markaziy Osiyo regionida O'zbekiston nomi ko'rsatiladigan bo'ldi. Shuning uchun ham O'zbekistonda yashayotganimdan baxtiyorman. Go'zal tog'lar, bepayon dalalar xavas qilsa arziydigan shaxarlarimiz bor. Uni doimo sog'inaman, sen bilan faxr etaman, Vatanim!

Anglash bosqichi . Aqliy xujum.

Bu bosqichda o'quvchilarning qo'yilgan muammosi nisbatan fikrlari aniqlab olinadi.

To'rtta guruhga alohida-alohida topshiriqlar beriladi.

-guruh “Lochinlari” Mavzuni o'qib fikrlarini tushuntirib beradilar.

-guruh “Burgutlar” Vatanimizning tog'lari, bog'lari, binolari, daryolari, soylarini chizib beradilar.

-guruh “Lolalar” bir guruh a'zolari hayajonlarini qo'shiqlar, raqs, she'r bilan ifoda etadilar. (O'qituvchi doira orqali qo'shiq aytтира ham bo'ladi.)

Ana gullola, mana gullola, gullola,

Vatanimiz qanday go'zal gullola.

Go'zal-go'zal tog'lari-gullola.

Aniqlash bosqichi: Aqliy hujum.

O'zbekistonni yam-yashil daraxtga qiyoslaymiz. Bu daraxt “Vatan daraxti”dir. Bu topshiriq o'yin shaklida olib boriladi.

O'qituvchi savol bilan murojat qiladi.

-Bolalar dunyoda nima aziz?

O'quvchilar; - Ona, Vatan, non.

-Qani bu so'zlarga ta'rif beraylikchi?

-Ona-aziz, mo'tabar. ulug', muqaddas. Mehribon.

-Vatan-ona yer, baxt, oltin beshik, aziz, ulug'.

-Non-ulug' ne'mat, dasturxon ko'rki, aziz, hayot.

Mustahkamlash: Qog'irchoqlar bolalarga topshiriqlar bilan murojaat qiladilar.

Bulbul chamanni sevar,

Odam-Vatanni.

Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas.

O'zga yurtida shoh bo'lguncha,

O'z yurtida gado bo'l.

Fikrlash bosqichi:

Yakunlash.

Guruhlarning ballari hisoblab chiqiladi.

Faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantriladi va baholanadi.

Uy ishi: mavzuni o'qib kelish, tushunchasini ayta olish qobiliyatini egallash

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishda modulli o'qitishning ham o'rni kattadir. Biz buni 3-sinf o'qish darsida "Navoiy" mavzusini o'rganishda ko'rib chiqdik.

Maqsad: o'quvchilarga ifodali o'qishni o'rgatish, ularni mustaqil ishlashga va ijodiy fikirlashga undash.

Uslubi: noan'anaviy .

Kerakli jihozlar: darslik , dars modeli, tarqatma materiallar.

Darsning borishi :

1.Tashkiliy qisim.

O'quvchilarni "rang tashlash" usuli yordamida guruhlarga ajratiladi. Masalan: qizil va oq ranglaridan birini tanlash aytiladi, o'quvchilar o'zlari yoqtirgan rangni tanlaydilar. So'ng qizil rangni tanlagan o'quvchilar 1-guruh, oq rang tanlagan bolalar 2-guruh bo'ladilar.

Sinifdagi partalar ham guruhdagi o'quvchilarning hamkorlikda ishlashi uchun qulay qilib joylashtiriladi.

Yangi mavzu e'lon qilinadi va xat taxtaga sana bilan mavzuning sarlavhasi yozib qo'yiladi. O'qituvchi mavzuga doir tuzgan dars modulini guruhlarga taqdim etadi. Dars moduli bilan qanday ishlash kerakligi o'quvchilarga tushuntiriladi.

Dars moduli quyidagi ko'rinishida bo'ladi:

	Topshiriqlar	Modulining didaktik maqsadi	Ko'rsatmalar	Aj-gan vaqt
	Quyidagi savollarga og'zaki javob bering: 1. Alisher Navoiyining do'sti kim edi? 2. Pahlavon Muhammad kimning g'azabiga uchradi.	O'quvchilarning o'quv malakalarini shakillantirish va og'zaki nutqini o'stirish	Xikoyani tez o'qib chiqing	5 minut
	Husayn Boyqaro pahlavonni nima qilishini aytdi, o'zingizning fikringizni ayting.	Bolalarning yozma nutqining o'stirish.	4-5 gapdan iborat bo'lgan	4 minut
	Alisher Navoiyning o'rnida bo'lganligida nima qilardingiz, Alisher Navoiy to'g'ri ish qildimi.	O'quvchilarning ijodiy fikrini takomillashtirish va ularga tarkibiy ta'sir etish.	Guruh a'zolari bilan maslahatlashib bajaring.	3- minut
	Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy do'stligi haqida yozing.	Buyuk kishilarning shaxsiy xislatlarni solishtirishga o'rgatish	Shaxsiy xislatlarini yoriting. M-n: Jasur, mard...	3- minut
	Hikoyadagi kimlarga o'xshashni hohlardingiz? baho berishini o'rgatish	O'quvchilarga hikoyadagi obrazlarga baho berishini o'rgatish	O'zingizning fikringizni bildiring.	3- minut

2-guruh uchun moduli

	Topshiriqlar	Modulining didaktik maqsadi	Ko'rsatmalar	Aj-gan vaqt
	<p>Quyidagi savollarga og'zaki javob bering:</p> <p>3. Alisher Navoiyning do'sti kim edi?</p> <p>4. Pahlavon Muhammad kimning g'azabiga uchradi.</p>	<p>O'quvchilarning o'quv malakalarini shakillantirish va og'zaki nutqini o'stirish</p>	<p>Xikoyani tez o'qib chiqing</p>	<p>5 minut</p>
	<p>Husayn Boyqaro pahlavonni nima qilishini aytdi, o'zingizning fikringizni ayting.</p>	<p>Bolalarning yozma nutqining o'stirish.</p>	<p>4-5 gapdan iborat bo'lgan</p>	<p>4 minut</p>
	<p>Alisher Navoiyning o'rnida bo'lganinggizda nima qilardinggiz, Alisher Navoiy to'g'ri ish qildimi.</p>	<p>O'quvchilarning ijodiy fikrini takomillashtirish va ularga tarkibiy ta'sir etish.</p>	<p>Guruh a'zolari bilan maslahatlashib bajaring.</p>	<p>3- minut</p>
	<p>Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy do'stligi haqida yozing.</p>	<p>Buyuk kishilarning shaxsiy xislatlarni solishtirishga o'rgatish</p>	<p>Shaxsiy xislatlarini yoriting. M-n: Jasur, mard...</p>	<p>3- minut</p>
	<p>Hikoyadagi kimlarga o'xshashni hohlardinggiz? baho berishini o'rgatish</p>	<p>O'quvchilarga hikoyadagi obrazlarga baho berishini o'rgatish</p>	<p>O'zingizning fikringizni bildiring.</p>	<p>3- minut</p>

O'quvchilar necha guruhga bo'linsa, shunga dars moduli tuziladi. O'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadida test o'tkazish ham mumkin, bu albatta vaqtga bog'liq. Agar o'quvchilar darsda faol bo'lib moduldagi topshiriqlarini tez bajarib bo'lsalar testdan foydalanish mumkin. Test savollar mavzudan kelib chiqib sodda tuziladi.

Quyidagi savollarga og'zaki javob bering:

Alisher Navoiy qachon tug'ilgan?

- A) 1441 yil 9 fevral
- B) 1444 yil 10 fevral
- C) 1600 yil 23 iyun
- D) 1450 yil 14 fevral

Shunga oxshash test savollari tuzib, bolalarning o'tilgan mavzuni qanchalik o'zlashtirib olganliklarini bilish mumkin.

Dars umumlashtiriladi. Guruhlar rag'batlantiriladi. Faol qatnashgan bolalar baholanadi. Vazifa berib, dars yakunlanadi.

Dars modulidan foydalanilganda o'quvchilarni mustaqil ishlashga undash lozim. Iloji boricha har bir bolaning yozganlarini ko'rib chiqish zarur. Yuqoridagi topshiriq uchun vaqt belgilanadi. Har bir topshiriqda o'qtuvchi ma'lum vaqt ichida bolalarni baholab turadi, qolgan vaqtdan unumli foydalaniladi. Izoh: dars modulidagi topshiriqni bajarish uchun ikkta guruhga ham teng vaqt ajratiladi. Har bir topshiriqdan so'ng ikkta guruhga taqdimot uchun 2- minutdan vaqt beriladi. Ana shunda dars moduli ustida ishlash uchun 34-minut vaqt sarflanadi. Ilojo boricha, vaqtni tejash lozim. Agar barcha o'quv faoliyati elementini bajarish uchun vaqt yetmasa, u holda biror ta'sini uyga vazifa qilib berish mumkun.

O'quvchilarni bunday o'qitish orqali ulardagi fikrlash jarayonining boyishi aqliy tafakkurning o'sishini bitiruv malakaviy ishimizning amaliy qismini bajarish mobaynida amin bo'ldik.

II.2. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda aqliy tarbiyani shakllantirish yo'llari

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan birga mustaqil o'qiy oladigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jixatdan sinfdan tashkari o'qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga xavasni orttiradi. Sinfdan tashqari mashqulotlar bevosita sinfda olib boriladigan o'quv darslari bilan boqliq qisoblanadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar o'zlari mustaqil kitob tanlab uni mutaola qiladilar, o'qiganlari yuzasidan baxs-munozora uyushtiradilar, bu esa ularda aqliy tarbiyaning shakllantirib, dunyoqarashini o'stirishga erkin muloxazalar tutishga o'rgatadi. Bundan tashkari sinfdan tashqari o'qish mashqulotlarida mustaqil bajarish uchun mashqulotlar eng yaxshi ishonarli taqrizlarni yozuvchi qaqida to'plagan ma'lumotlarni o'qish “tez aytish”, “topishmoqlar” “maqollar aytish” bilimlar anjumani kabi ko'rik tanlovlar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirishb o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qigan asarlar yuzasidan suxbatlar o'tkazish “Kitob xaftaligi” tashkil etish asarlar asosida kichik insho yozishni mashq qilish, o'quvchilar aqliy faoliyatini shakllantirishda muhim omildir.

Bundan tashqari boshlanqich sinflarda matematika darslarida ham o'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirish maqsadida sinfdan tashqari mashqulotlar olib borish mumkin. Masalan: darsdan tashqari holatlarda to'garaklar joriy qilish. Matematika fani xaftaligi o'tkazish, sinflar o'rtasida matematika fani yuzasidan bellashuvlar tashkil qilish. “eng yaxshi matematik” tanlovni o'tkazish va boshqa bir qator sinfdan tashqari mashg'ulotlar olib borish yo'llari bilan amalga oshiriladi. Shuningdek ona tili fani yuzasidan o'quvchilar aqliy salohiyatini oshirish maqsadida sinfdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etish mumkin. Bunda o'quvchilar va sinflar o'rtasida “Kimning xati chiroyli”, “Eng yaxshi insho” ko'rik tanlovlri sinfdan tashqari xolatlarda turli tadbirlar o'tkazish, to'garaklar tashkil etish “Navoiyxonlik” kechalarini o'tkazish bilan o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish, aqliy saloxiyatlarini oshirishga erishishi mumkin.

Atrofimizdagi olam, tabiat darslarida sinfdan tashqari mashqulotlar olib borishda ularni jonli tabiat olamiga olib chiqish, sayoxatlar uyushtirish, xayvonot bog'lariga olib borish, vohamizda uchraydigan o'simliklar turlarini ko'rsatish tabiat in'om etgan boyliklarni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazish to'g'risida tushunchalarni shakllantirish orqali erishish ko'zda tutiladi. Bundan tashqari o'quvchilarga sinfda va sinfdan tashqari darslarida tabiat haqida turli video lavxalar qo'yib ko'rsatish va eshittirish orqali ularda ongni anglash xislatlarini rivojlantirish qam sinfdan tashqari olib boriladigan mashqulotlarning muqim shartidir.

Jismoniy tarbiya darslarida esa sinfdan tashqari olib boriladigan mashqulotlarda o'quvchilarni sport musobaqalariga olib borish, darsdan bo'sh vaqtlarida sport bilan shug'ullanishini nazorat qilish, maktablarda boshlanqich sinflar o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etish, bolalarni sportga qiziqtirib, turli sport musobaqalariga jalb qilish. "Sog'lom tanda- sog' aql" degan xikmatli so'z asosida sportning sog'ligimizga foydasi haqida tushuncha berish ongiga singdirish orqali aqliy tarbiyani shakllantirish amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari olib boriladigan mashqlar asosan o'quvchilarni nazariyada olgan bilimlarini amaliyotda ko'rib ishonch hosil qilishga o'rgatiladi. Boshlanqich sinflarda (1-4) sinfdan tashqari olib boriladigan barcha fanlar bo'yicha mashqulotlar o'quvchilarni nafaqat aqliy tarbiyasini balki ularda axloqiy jismoniy istetik tarbiya shakllarining rivojida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda biz quyidagi dars ishlanmalarini 16-maktabda o'tkazdik va yaxshi natijalarga erishdik.

3-SINFDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSIDA 1 SOATLIK DARS

ISHLANMASI

MAVZU: TABIAT - MENING UYIM.

DARSNING MAQSADI:

TA'LIMIY MAQSAD: o'quvchilarni she'r mazmuni bilan tanishtirish, tabiat haqida bilimlarini boyitish she'r o'qish sifatini takomillashtirish.

TARBIYAVIY MAQSAD: o'quvchilarni tabiatga meqr-muxabbat ruxida tarbiyalash. Tabiatdagi xayvonot va o'simlik dunyosini asrashga o'rgatish. Tabiat qaqidagi tasavvurlarni boyitish.

RIVOJLANTIRUVCHI MAQSAD: o'quvchilarni kuzatuv-chanligini oshirish, tabiat sirlarini o'rganishga xavas o'yqotish. Ularda ekalogik ong va madaniyatni rivojlantirish, o'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirish, dunyoqarashini boyitish.

DARS TURI: Yangi bilimlarni bayon etuvchi

DARS SHAKLI: Noan'anaviy (aqliy xujum, klaster (tarmoqlash) didaktik o'yinlar)

DARS JIHOZI: tabiat manzarasi tasvirlangan ko'rgazma materiallari, qushlar va qayvonlarning rasmlari

DARSNING BORISHI:

TASHKILIY QISM: Salomlashish, davomatni aniqlash.

Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

O'qituvchi:

Hozir qaysi fasl?

O'quvchi:

Bahor fasli

O'qituvchi:

Bahaor fasliga kiruvchi oylarni ayting.

O'quvchi: Mart, aprel, may.

O'qituvchi:

Tabiat nima?

O'quvchi:

Bizni o'rab turgan olam.

2.UYGA VAZIFANI SO'RAB BAHOLASH:

Bunda o'quvchilarni o'qib kelgan asarlari so'raladi, olib kelgan kitoblari ko'rib chiqiladi. Uyga vazifani mustaqamlash maqsadida o'qigan asarlari yuzasidan savollar beriladi.

3.YANGI MAVZU BAYONI:

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar biz sizlar bilan hozir "tabiat mening uyim" she'rini o'qiyimiz. Bir necha o'quvchi 4 qatordan she'rni o'qiydi.

1-O'quvchi:

Dalalarni aylansam
Uzoq hayolga botsam.
Chigirtkalar qo'shig'in
Tinglab yotsam.

2 - O'quvchi:

Tabiat mening uyim,
Tabiat – jonimga jon.
Shivirlayman men unga
Va onamga: - onajon

3 - O'quvchi:

Shundanmiq ko'ksim oqir
Zaxarlansa ona er
Tabiat – mening uyim
Tabiat eg go'zal she'r

4 - O'quvchi:

Shivirlasam giyohga
Xapqirgancha –ey ko'kat
Nega keldim dunyoga
Yashamoq sirin o'rgat.

5 -O'quvchi:

Toshni yorgan giyoqlar,
Sobotdan dars o'qisin.
Oy cho'milgan daryolar,
Bolaga she'r to'qisin.

6 - O'quvchi:

Uchadi bola tomon

Shu sabab mening so'zim:

Tabiat –jonimda jon,

Tabiat – mening uyim.

She'r yuzasidan suxbat uyushtiriladi.

O'qituvchi:

She'r nima qaqida ekanq

O'quvchi:

Tabiat, shoirning uyi ekanligi haqida.

O'qituvchi:

Bolalar, hozir o'rtoqlaringiz o'qigan she'rning muallifi kim? U nimani kuylayapdi?

O'quvchi:

Bu she'r X.Davronning “Tabiat mening uyim” she'ri. Unda shoir “Mening tutash o't ildizim, tunlari oy va yulduzlari daftarimni yoritadi. Ona er zaxarlansa, ko'ksim oqriydi. Sen uni asra mangu qolsin, o'lmasin.” – deyapti.

O'qituvchi:

Tabiatni qanday so'zlar bilan ta'riflash mumkin. Buni o'quvchilar tarmoqlash usuli orqali bajarishadi.

O'qituvchi:

Xurmatli o'quvchilar! Demak, biz tanishgan she'rimizda tabiat kuylangan ekan. Tabiat bizning ikkinchi onamiz. Chunki biz onamiz va tabiat quchoqida yashaymiz. Shuning uchun ham biz uni “Ona tabiat” deb ataymiz. Biz uning bag'rida o'simliklarni qushlarni va hayvonlarni, dengizu ko'llarni va boshqa boyliklarni asrashimiz, e'zozlashimiz kerak. Tabiat insonga birgina toza suv, xavo, oziq-ovqat, kiyim – kechakkina emas balki sog'liq a'lo kayfiyat ham beradi

DAM OLIISH DAQIQASI.

Dam olish daqiqasida o'quvchilarni aqliy faoliyatini o'stirish uchun topishmoqlar beriladi.

Dengiz-u daryoda yashar,

Asosan ko'klarda kezar.

Zeriksa bormu osmonda,
Zamin uzra qaytib tushar.

(Suv)

Ikki yaproq bir tanda,
Kezar gulzor chamanda

(Kapalak)

O'zi qizil go'zal gilam,
qirga yozar qizil gilam.

(Lola)

O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH.

O'tilgan mavzuni mustaqkamlash maqsadida “Kim ko'p biladi” o'yini o'tkaziladi. Bunda o'quvchilar 3 ta guruqga bo'linishadi.

Bilaqonlar

Zukkolar

Topqirlar

Ular “Bilaqonlar” xayvonlar nomini “Zukkolar” qushlar nomini, “Topqirlar” o'simliklar nomini aytishadi. Kim nom aytishdan tuxtasa o'sha guruq o'yindan chiqadi. O'yin yakunida qolgan guruq qolib qisoblanadi.

DARSNI YAKUNLASH:

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baqolanadi va raqbatlantiriladi.

UYGA VAZIFA BERISH:

X.Davronning “Tabiat mening uyim” she'rini yod olish.

NON YOPGANDA MENING OYIM

(4-sinf uchun)

Mavzu: Ona aziz

Darsning maqsadlari:

a) ta'limiy:

O'quvchilarning ifodali o'qish malakalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Ular qalbida Vatanga va onaga bo'lgan muhabbat hislarini o'stirish ziyraklik

va tezlorlik bilan ishlashga o'rgatish.

b) tarbiyaviy:

Ma'naiy qadriyatlarimizga, urf odatlarimizga bo'lgan hurmani yanada kuchaytirish, topqirlik qobiliyatlarini, xotiralarini mustahkamlash.

v) rivojlantiruvchi:

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirish, erkin va mustaqil fikrlar qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, sinfda ijodiy muhitni shakllantirish.

Dars metodi: Musobaqa, suhbat, sahna ko'rinishi.

Dars jihozi: Mavzuga oid ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

a) darsga jalb etish;

b) o'tilgan darsni so'rab baholash;

d) mustahkamlash;

Dars boshlandi: O'qituvchi o'quvcilar bilan salomlashadi, o'quvchilar tomonidan Madhiya jo'r bo'lib kuylanadi. So'ngra o'qituvchi navbatchiga murojat qiladi:

Har narsadan xabarchi,

Sinfda kim navbatchi?

O'quvchi: Har narsadan xabarchi,

Sinfda men navbatchi.

Darsda hamma bor.

Yangi mavzu boshlanmasdan oldin o'qituvchi savol-javob o'tkazadi.

O'qituvchi: Hozir darsimiz o'qish. "O'qish kitobi" nima deydi?

O'quvchilar kitob tilidan so'zlaydilar.

Birinchi o'quvchi:

Yozuvchilar, shoirlar,

Hayotidan so'zlayman.

Navoiy va Boburlar,

Ijodidan so'zlayman.

Ikkinchi o'quvchi:

Qaynab toshar ilhomim,

Qissa-yu, se'r hikoya.

Qiziqib o'qisangiz,

Hursandman benihoya.

O'qituvchi: Hozir o'lkamizda qaysi fasl?

O'quvchilar: Hozir o'lkamizda bahor fasli.

O'qituvchi: Aziz bolajonlar, darsimiz noan'aviy tarzda o'tkazilayotgani bios guruhlariga bo'linib olamiz.

Birinchi qatorni -"Lola", ikkinchi qatorni -"Binafsha", uchinchi qatorni - "Boychechak" deb nomlab olamiz!

O'qituvchi: Aytingchi, bolalar, bayramlar ichida eng qadrlisi qaysi?

O'quvchilar: Navro'z, yangi yil, Mustaqillik, Bilimlar kuni, O'qituvchilar va murabbiylar kuni.

O'quvchilar bu yil katta tantanalar bilan nishonlangan buyuk Istiqlolimizning 22 yilligiga bag'ishlangan she'rlardan aytadilar.

O'qituvchi: Sizni oq yuvib oq taragan inson kim?

O'quvchilar: Onajonimiz!

O'qituvchi: Demak onajonlarimiz chaqirganda doimo "Labbay" deb, ish buyursalar"Xop bo'ladi" deb bajarishimiz kerak ekan.

Quvnoq daqiqa o'tkaziladi:

Elakka un elandi,

Supra unga belandi.

Hamir qordik ko'pgina.

Kulcha yopdik ko'pgina.

O'qituvchi: Bizga issiq nonlar yopib bergan onajonlarimizga nima deyish kerak?

O'quvchilar savolga she'r bilan javob beradilar.

Non yopganda, non yopganda,

Mening oyim, mening oyim.

Kichik kulcha, shirin kulcha,

Yopar doim, yopar doim.

Kulcha juda mazali,

Sedanali, jizzali,

Yegan sari, yegim kelar.

"Raxmat oyi" degim kelar.

O'qituvchi: Diqqat qiling! Hozirgi aytadigan gapim ikki so'zdan - uning birinchi uch harfdan, ikkinchi so'z to'rt harfdan iboratdir.

Birinchi so'zning birinchi harfi harflar jadvalidagi 14-o'rinda, Keyingisi -13-o'rinda va oxirgisi -1-o'rinda joylashgan.


Ikkinchi so'zning birinchi harfi harflar jadvalidadagi 1- o'rindan, keyingisi 24-o'rindan, uchinchi harf 8-o'rindan va oxirgi harf ham 24- ho'rindan joy olgan. So'zni birinchi bo'lib topgan guruhlar rag'batlantiriladi.

A 1	B 2	D 3	E 4	F 5	G 6	H 7	I 8
J 9	K 10	L 11	M 12	N 13	O 14	P 15	Q 16
R 17	S 18	T 19	U 20	V 21	X 22	Y 23	Z 24
O' 25	G' 26	CH 27	SH 28	Ng 29	'tutuq		

O'quvchilar: "Ona aziz" degan yozuvni topadilar

Topolmagan guruhlar jarima kartochkasini oladilar. (Bolalar doska yoniga chiqib, tez aytishlar va se'rlar aytib beradilar.

O'qituvchi: Demak, bugungi o'tadigan yangi mavzumiz- "Ona aziz" she'ri bo'lib, uni o'tish jarayonida klaster usulidan foydalanamiz, onaga xos xususiyatlarini topamiz.



Ona so'zining mazmun mohiyati o'qituvchi tomonidan aytiladi va rivoyatlarga bog'lab tushuntiriladi.

Qadim zamonlarda razil, zolim shoh.
Tinch yurtga kiribdi, etmasdan ogoh.
Sanoqsiz boshlardan olibditandan.
Omon qololmapdi hech bir zot undan.
O'limga mahkumlar ichida shu on.
Shoh oldiga keldi bolali juvon.
"Shohim, sizni qilay o'lguncha e'zoz"
O'lim muddatini cho'zsangiz biroz.
Qo'limdagi go'dak kecha tug'ilgan.
Yurguncha parvarish qilay uni mer
Mayli, meni keyin dorga ossangiz,
Qanday azob bo'lsa chidayman so'z siz.
"Mayli, go'dagingni ilgil parvarish"
Lekin bir shart bilan bitadi bu ish.
O'n oyga cho'zaman o'lim muddati
O'g'lin tipib ketar shundan so'ng baxtin,
Lekin o'zing menga har bir oy uchun.
Bitta barmog'ingni berursan bilgil.
Shu shartga ko'nsang bas, hozirdan mana.
Birinchi barmog'ing qo'ygil kundaga.
O'limdan bolasin asrashchun ona,
So'ngi barmog'idan ayrilar ekan.
Bolasini o'ylab ona berar jon.
Mayli, o'tar qiynoqlar ham.
Faqat sog' bo'l o'zing jonginam.
Og'ir azoblarga chodab mardona,
Shunday xalok bo'ldi bechora ona.
Ona siymosini etdim men bayon.

Onadek bo'lolmas xech kim mehribon.

O'qituvchi: Ko'rdingizmi, aziz bolajonlar,ona o'z bolasi uchun jonini fido qildi. Shunday ekan ona hurmatini saqlaylik, dillarini og'ritmaylik. Hamisha uni sharaflaylik.

Darslik bilan ishlash:

O'qituvchi darslikdan " Ona aziz" she'rini ifodali o'qib beradi. O'quvchilarga ovoz chiqarmay o'qib chiqib topshiriladi va ular navbat bilan o'qitiladi.

So'ng mavzu yuzasidan savol- javob o'tkaziladi.

O'qituvchi: Bolalar, onalaringizni qanchalik yaxshi ko'rishingizni bilish maqsadida bir topshiriq beraman. Hammangiz o'z onalaringiz haqida eng yaxshi tilaklarni bildirib, kichik bir matn yozasiz va shu matnga o'zlaringiz sarlavha qo'yasizlar.

O'quvchilarning yozgan matnlari o'zlariga o'qitiladi. Mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazilib dars mustahkamlanadi. Darsni mustahkamlashda maqollardan ham foydalaniladi.

" Ona bilan bola gul bilan lola ", " Dunyo tor bo'lganida ham ona bag'ri kengdir ", " Shahar tojini izlama, onang roziligini izla " va hokozo.

Krossvord

1. Unga xiyonat qilmaydi.
2. Rizq- ro'zimiz.
3. Eng jozibali qo'shiq.
4. Tovuqning bolasi.
5. Bahorgi dorivor o'simlik
6. Gullamay meva tugadigan daraxt.

1	O					
2	N					
3	A					
4	J					
5	O					
6		N				

Ushbu boshqotirmaning javobini izlash o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga undaydi va aqlini peshlaydi .

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, hozir men sizlarga bir qancha savollar beraman, siz esa tezgina javob berasiz.

O'qituvchi: Siz kimlarni naslisiz?

O'quvchilar: Biz buyuk bobomiz Amir Temurning naslimiz.

O'qituvchi: Siz kimlarning farzandisiz?

O'quvchilar: Biz o'zbekning farzandimiz.

O'qituvchi: Ona yurtigingiz qayer?

O'quvchilar: Mustaqil O'zbekiston.

O'qituvchi: Sevgan joyingiz qayer?

O'quvchilar: Maktab jonajonimiz.

O'qituvchi: Sevgan kishingiz kim?

O'quvchilar: Aziz onajonimiz.

O'qituvchi: Ha, bolajonlar, bu dunyoda munis onamizu ona Vatanimiz uchun hamisha ardoqli va aziz . Doimo ikkisini qadriga yetishimiz, ularni ko'z qorachig'idek asrashimiz kerak.

“Ona aziz” she'rini yod olib kelish uyga vazifa qilib topshirildi. Darsda faol ishrirok etgan o'quvchilar o'qituvchi tomonidan rag'batlantirildi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida quyidagi hikoyalarni o'qitish ham o'quvchilarga aqliy tarbiya berish uchun zamin yaratadi.

QAYSI BOLA SAYLANARKIN?

...Sinf rahbari dars tugagach, bolalarga javob berarkan:

— Ertaga dam olish kuni, — dedi, — dushanbada majlis o'tkazib, sinf sardorini saylaymiz. Kimni saylashni yaxshilab o'ylab ko'ring!

Sinf sardorini saylash har yili hamma yerda bo'ladigan gap. Shuning uchun hamma uyiga jo'nadi- yu, biroq Asqar negadir tipirchilab qoldi. Uyoqqa qaradi, buyoqqa qaradi, oshnasi Mirqobil ko'rinmadi.

Xo'rsinib: «E, attang», dedi-yu, bo'shshib ko'chaga chiqdi.

Uyiga keldi.

Ovqatni yeb darsga o'tirgan bo'ldi-yu, biroq kallasi g'ovlab, xayolini bir joyga yig'olmadi. O'zini chalg'itmoqchi bolib hovliga chiqdi, uyga kirdi. Yuragigi g'ashlik solib turgan narsa bora-bora vahimaga aylandi-yu, ko'chaga chiqib, Mirqobilning eshigini taqillatdi.

— Kim? — dedi ichkaridan Mirqobil, — eshik ochiq.

Asqar eshikni qiya ochib, Mirqobilni imladi.

— Beri kel!

Mirqobil ko'zlarini ishqalab ostonaga yaqinlashdi.

— Qoyilman, — dedi Asqar, — boya lippa quyon bo'libsan-qolibsan-da.

Mirqobil ko'zlarini katta-katta ochib:

— Nima gap? — dedi, — uyga kelib uxlab qolibman.

— Shunaqami? Qani, yur biznikiga! — dedi Asqar va Mirqobilni boshlab uyiga olib chiqdi. Bog' etagidagi supachaga yonma-yon cho'qqayishgach:

— Boyadan beri mana bu yerimni mushuk timdalayotganga o'xshaydi, — dedi ko'ksiga musht urib,

— bilasanmi, nega?

— Yo'q!

— Shunaqa beparvosan-da, — dedi Asqar, — xo'sh, bu gal ham sinf sardorligiga Zuhra saylansa-chi?!

Buni qarang, shu narsa hech Mirqobilni xayoliga kelmagan ekan, rangi o‘chib, ko‘zlari pirpirab, Asqarga yaqinroq siljidi.

— Bunga yo‘l qo‘ymaslik kerak, — dedi shivirlab.

Mirqobilning tili kalimaga kelmay ko‘z oldi qorongilashib ketdi. Zuhra o‘tgan yili ikki o‘rtoqni

ozmuncha qiynadimi. To‘polonchi deb gazetaga yozdirdi, har ikkisi ora-chora yomon baho olib turguvchi edi, ota-onasiga kelib chiqdi, bu ham mayli, har kuni erta bilan ikki o‘rtoq maktabga kelganda «qani, dars qildilaringmi?» deb o‘qituvchidan avval daftarini tekshiradigan boidi. Eh-ha, gapiraversa Zuhraning qilmishlarining oxiri yo‘q. Bir amallab yozgi ta‘tilga chiqib olishdi-yu, yangi o‘quv yilida boshqa sardor boisa ajab emas, axir sardorlikni unga bir umr bog‘iab berib qo‘yibdimi, degan umidda o‘zlarini ovuntirib yurishdi. Mana endi...

— Zuhra uch yildan beri sinf sardori, — dedi Asqar,

— yetar, endi boshqani saylashar, kim biladi, yo Salim boiadi, yo Munira — ikkovi ham aiochi. Sardorlikka yo Ravshan saylanarmikin?

— E-e, qiziq ekansan, — dedi Mirqobil, — kim saylanishi bilan nima ishing bor, qayoqdagi boimag‘ur narsalar bilan bosh qotirib yuribsan-a!

— E, tentak, — deb yubordi Asqar, — hamma gap shunda-da!

— Xo‘sh?

— O‘sha saylanadigan bolalarni oldindan sezib, ko‘nglini olib qo‘yish kerak, — dedi Asqar ma‘nodor,— keyin anaviga o‘xshab g‘iring-piring deb yurmaydi, yo gapim chakkimi?

Mirqobil o‘ylab qarasa Asqarning gapida jon bor. Hozir dars tayyorlashdan ko‘ra Asqarning taklifi muhimroq tuyuldi-yu, ikki o‘rtoq rejani tuzib, ko‘chaga chiqishdi. To‘ppa-to‘g‘ri Salimning eshigini taqillatishdi. Hadeganda hech kim javob beravermadi, endi ketishmoqchi boiib turishganda, Salimning singlisi ko‘chaga chiqib qoldi.

— Akang qani? — dedi Mirqobil.

Singlisi bir Asqarga, bir Mirqobilga ko‘zlarini moitiratib qarab turdi-da, ichkariga kirib anchadan so‘ng akasini boshlab chiqdi. Salim ularni ko‘riboq:

— O‘ynaganimi? — dedi, — E, attang, ishim ko‘p!

— Voy tentak-e, — dedi Asqar, — biz ham senikiga ish deb kelganmiz-da, qani, boshla!

Salim ishkodagi uzumlarga qog‘oz o‘rayotgan ekan.

— Bisotingdagi bor eski qog‘ozlarni yig‘ishtirib kel,
— dedi Asqar.

Salim og‘zi qulog‘iga yetib bir quchoq eski gazeta ko‘tarib chiqdi. Ikki oshna uy egasini toza ishlatib, o‘zlari o‘rikning tagidagi soya-salqin joyga o‘tirib olib, qog‘ozlarni yirtib berib turishdi.

— Tovba, — dedi Mirqobil ko‘chaga chiqishgach, — Salim ham ziqnagina ekan, chug‘urchuq bir boshini er, ikki boshini er, shunga shuncha dahmaza-ya.

— Ha-ha, — deb qo‘ydi Asqar. — Xo‘sh, endi qayoqqa boramiz.

Mirqobil esa birov yelkasiga changal solayotgandek cho‘chib o‘rtog‘iga qaradi.

— Bugun yetar, — dedi, — ikkita qoiimni ko‘tarolmayapman, borging kelsa o‘zing boraver.

— Qoyil-e, — dedi Asqar va yarim yctlda qolib, Zuhralarnikiga o‘tdi. Tunov kuni kimdandir, Zuhraning oyisi kasalxonada yotgan ekan, dadasi ishdan kech qaytadi, deb eshitgandi. Uch-to‘rtta ukasi bor, bir o‘zi toza qiynalayotgandir, hozir Asqar eshikdan kirib borsa, rosa quvonsa kerak. Ana shunday shirin-shirin xayollar bilan Zuhraning hovlisiga kirgan edi, Zuhra ukalari bilan aymoqi uzumning tagidagi supachada bamaylixotir o‘tirgan ekan.

— Ke, — dedi Zuhra o‘rnidan turib, — ishing bormidi?

— Qiziqsan-a, — dedi Asqar, — ishi yo‘q odam birovning hovlisiga kiradimi, ukalaringga ovqat qilib berdingmi yo ochdan tirishib, tishining kirini so‘rib yurishiptimi?

Zuhra kuldi.

— Nechuk surishtirib qolding? — dedi. — To‘g‘risini aytaver, masala daftirimni so‘ragani kelgansan.

— Nima? — dedi Asqar ko‘zlarini katta ochib, — masala daftaringni pishirib ye, masala ishlasam o‘zimning kallam yo‘qmi, men biron yordamga muhtojmisan, deb keldim.

Zuhra uning ko‘zlariga qarab shubhalandi-da, hazillashib:

— Yaxshi eslading, — dedi birdan, — qo‘shnimiz Malika xolaning katta to‘nkasi bor ekan, hech yorolmadim, o‘tini tugay deb qolgan ekan, dadam yorib beray desalar, vaqtlari yo‘q.

— O‘zi uydami?

— Kim?

— E, o‘sha Malika xolang-da, kim bo‘lardi!

— Yo‘q, — dedi Zuhra, — bir qarindoshining nevarasi kasal ekan. O‘sha yoqqa ketgan, ana, bog‘ning devoridan;ushsang bo‘ladi!

— Yur, — dedi Asqar yengini shimarib, devorning nuragan joyidan Malika xolanikiga o‘tdi-yu, quchoqqa sig‘maydigan to‘nkani ko‘rib ko‘zi g‘ilay bo‘lib ketdi.

— Katta ekan, — dedi uyoq-buyog‘iga o‘tib, — to‘nka yaxshi narsa, bir yorsang qishi bilan yoqib chiqasan. Nimaning to‘nkasi bu?

— Yong‘oqniki, dedi Zuhra zimdan Asqardan ko‘z uzmay, — bultur qurib qoldi, dadam kesib berdilar, essiz, juda yaxshi yong‘oq edi-ya.

— Dadang ham qiziq odam ekan, — dedi Asqar hali ham hushini yig‘olmay, — yong‘oqni kichkinaligida kesganda to‘nkasi bunaqa beso‘naqay bo‘lmasdi, katta bolta bormi?

Zuhra uyidan bolta olib chiqdi.

— Sen boraver, — dedi Asqar, — ukalaringga cjara, men buni birpasda sarjin qilib tashlayman, shunqqa beso‘naqay to‘nka bo‘lganiga o‘kinib yursin.

Zuhra hazilashayapti, deb ukalarining oldiga ketdi- yu, ikki-uch devordan mo‘raladi. Asqar yenglarini shimardi, boltani qo‘liga olib, to‘nkaning bir uyog‘idan, bir buyog‘idan mo‘ljalgga olib gir-gir aylana boshladi-yu, nihoyat xuddi suratga tushayotgan odamday boltani havoda ko‘targanicha turib qoldi.

— Zuhra! — dedi ovozining boricha, — beri kel!

Zuhra devordan qaradi.

— Ha?

— Shundoq to‘nkam yorish uvol, — dedi. — Mayli, o‘tin yo‘q desang, birpasda samovar tarasha qilib yuboraman-u, ammo shundoq to‘nkaga bolta urgani hech ko‘zim qiymayapti.

— Bo‘lmasa nima qiladi? — so‘radi Zuhra.

Asqar boltani bir chekkaga iritib:

— Shuni ham bilmaysanmi, - dedi, — bunaqa asl to‘nkadan, eh-he, qanaqa narsalar yasash mumkin-a. Qiyma taxta, xo‘sh taroq, hech eshitganmisan, buvimda bor, aytishlariga qaraganda, yetmish yildan beri tutarkanlar! Oshtaxta, eh-he, sanayversa buning sanog‘i yo‘q.

— Mayli, qo‘ya qol, — dedi Zuhra.

— Ha, endi o‘zingga kelding, — dedi va eshikka qarab yo‘rg‘alab qoldi, — og‘ir bo‘lsa aytaver, uyalma, ko‘maklashib turaman, xo‘pmi?

— Xo‘p, — dedi Zuhra, Asqar ko‘chaga chiqib oldi. «Hayriyat-e, — dedi o‘ziga-o‘zi, — beadab qiz, birov seni hurmat qilib ish-pishing bormi, yordam beraymi deb kelsa, Jiech bo‘lmasa yolg‘ondan, yo‘q, rahmat, har qancha ish bo‘lsa o‘zimdanda ortmaydi, deb shirin muomala qilish o‘rniga qo‘shnisining ho‘kizday to‘nkasini ro‘para qiladi-ya!»

Asqar Ravshanlarnikiga keldi.

Ravshan ayvonda yonboshlab kitob o‘qiyotgan ekan. Sekin oyog‘ining uchida ichkari kirdi-yu, Ravshanning tepasiga keldi. Ravshan kitobga shu qadar berilib ketgan ediki, sezmadi ham. Bir mahal piq etib kuldi, keyin o‘zini tutolmay haxolab kula boshladi.

— Hoy, nima gap, bolam, — Ravshanning oyisi oshxonaning derazasidan bosh chiqardi, — tinchlikmi?

— Ha, oyi, tinchlik. — dedi Ravshan kulgidan yoshlangan ko‘zlarini artar ekan, — juda qiziq kitob ekan.

— Voy, shungami? — dedi va Asqarga ko‘zi tushib,

— hoy, Ravshan, nega o‘rtog‘ingga qaramaysan, — degan edi, Ravshan yalt etib o‘girildi-yu, tepasida turgan Asqarni ko‘rib, sekin o‘rnidan turdi.

— Ke, — dedi, — indamaysan-a?

Asqar ma‘nodor iljaydi. Ayvonning chetiga omonatgina o‘tirib:

— Zo‘r kitobmi d»yman? — dedi.

— Zo‘r ham gapmi, kulguli kitoblami o‘lgudek yaxshi ko‘raman. Shunaqa kitobni topib bergan odamdan jonimni ham ayagim kelmaydi.

Bu gapdan Asqar yal-yal yonib:

— Seni suyuntiray deb keldim-da, — dedi kerilib, — bir kitob o‘qidim, bay-bayyy, kulaverib ichagim uzildi. Yarmigacha o‘qidim-u, shartta to‘xtatdim, oldingga yugurdim.

— Rahmat, — dedi Ravshan birdan Asqarning qo‘llarini mahkam ushlab, — haqiqiy o‘rtoq ekansan, qani o‘sha kitob?

— O‘rtoq ham gapmi, — dedi Asqar, — bundan buyon soyangman, og‘ayni, xo‘p desang, ertaga keltirib beraman. Bunaqa kitob dunyoda bitta, o‘qisang bir hafta kulib yurasan. Ichida shunaqa gaplar borki, qay birini aytib berishga ham hayronman.

Bu maqtovlardan keyin Ravshanning qiziqishi ortib ketib, hech bo‘lmasa ozgina aytib ber, deb Asqarni jon- holiga qo‘ymadi. Ammo Asqar nima deyishini bilmay dovdirab qoldi. Nega desangiz, bundan ikki yil ilgari kutubxonadan bitta kitob olib o‘qigani esida. Ammo qanaqa kitob, nima to‘g‘risida, yodida yo‘q. Shuning uchun: «Qo‘y, men aytib bersam qizig‘i qolmaydi», deb shuncha qilsa qani Ravshan ko‘nsa.

— Ha, mayli, — dedi-yu, Asqar dovdirab qoldi: — Bir cholning ikki o‘g‘li bor ekan, to‘rt qizi bor ekan. O‘sha cholning to‘rt qizi-yu, ikki o‘g‘li bor ekan, shu desang...

Asqar uyog‘iga gap topolmay qornini changallagancha yolg‘ondakamiga haxolay boshladi. Ravshan hayron edi, nimasi kulgili ekan. Asqar yolg‘ondakam yoshlangan ko‘zini kafti bilan arta-arta:

— Yo‘q, bo‘ldi, uyog‘ini aytib berolmayman^ — deya o‘midan turdi, — uyog‘i shunaqa kulgiliki, mana ko‘rasan, ertaga olib kelay, kechasi bilan kulib chiqasan!

Asqar amallab ko‘chaga chiqib oldi-yu, peshonasiga bir urdi. Hamma ayb o‘zida, o‘qimagan kitobini maqtab nima keragi bor edi, endi kulgili kitobni Ravshanga qayerdan topib beradi, topib bermasa Ravshan hammaning ichida yolg‘onchi ekansan, deb rasvo qilishi turgan gap, bordi-yu, sinf sardorligiga saylansa-chi, ana xolos, bunaqa bolani aldab bo‘larmidi.

Asqar yarim kechagacha uyquasi kelmadi. Sardorlikka kim saylanarkin? Buni qarang tushiga ham shu kiribdi:

hamma birdan sardorlikka Ravshanni taklif qilgan ekan, eski sinf sardori dast o‘rnidan turib:

— Yo‘q, — debdi, — bu gal sinfkomlikka eng yaxshi bolani saylaymiz. Malika xolaning to‘nkasini yorib bergan, Salimlarning uzumini qog‘oz bilan o‘rashgan, Ravshanga kulgili kitob topib bergan Asqarni saylaylik!

Bu gapdan shov-shuv ko‘tarildi.

— Bo‘lmagan gap, — debdi Zuhra, — Asqar to‘nka yorib bergani yo‘q!

— Yolg‘on, — deb gapga aralashibdi Salim, — Asqar uzum bog‘lashaman deb o‘rtog‘i bilan yarim ishkom uzumni yeb ketdi.

— Meni ham aldagan, — deb shov-shuvga qo‘shilibdi Ravshan.

Asqar bundoq qarasa, hamma ko‘zini uzmay qarab turganmish. Sekin orqasiga tisarila-tisarila oynadan hovliga sakrab tushib qochmoqchi bo‘lgan ekan, qarasa ikkala oyog‘i yo‘q bo‘lib qolganmish! Asqar qora terga botib uyg‘onganda kun yorishib qolgan edi. Apil-tapil kiyinib, choyini ichdi-yu, papkani silkitib maktabga jo‘nadi. Ko‘ngli kechagidan battar g‘ash edi: oltinchi «A»ning sardori etib qaysi bolani saylasharkin-a?!

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishni bajarish natijasida quyidagi hulosalarga kelindi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishi o'z tarixiy ildizlariga ega. Bu borada milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanish va ta'lim jarayonida ularning samarali imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllanganligining bugungi kundagimavjud holati o'rganildi, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ta'minlandi.

O'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni boyitildi. O'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirishda innovasion metodlardan foydalanish zarurligini tajriba tasdiqladi.

Tavsiyalar

Bitiruv malakaviy ish natijalari quyidagi tavsiyalarni taqdim etishga imkon berdi.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy meros, asrlar davomida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analardan ta'lim jarayonida foydalanishga erishish.
2. O'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirishda ularning Yoshi individual xususiyatlarini inobatga olgan holda bilimlar mazmunini boyitish va kengaytirish.
3. O'quvchilarning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishlarida dars va darsdan tashqari mashg'ulot o'rnini oshirish.
4. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda bayramlar senariylarini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” T. 1997 yil
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
3. Karimov I.A Istiqlol va ma'naviyat. – Toshkent, O'zbekiston, 1994.97-98 betlar
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997..
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi, 1992 22-23 betlar.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shajri. T.: Xalq merosi nashriyoti, 1993.
7. Abu Rayhon Beruniy. . Tanlangan asarlar.14-jild.Toshkent o`qituvchl 1994.10-betlar
8. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud axloq. T.: O'qituvchi, 1992.
9. Alisher Navoiy. Mabub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13-tom. -T.: Adabiyot va san'at, 1996.206-207 betlar
- 10.Davoniy J ta`lim-tarbiya haqida Toshkent O`qituvchi 1981yil 36-bet
- 11.Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. -T.: O'qituvchi, 2001.
- 12.Pedagogika A.Q.Munavvarovning tahriri ostida. -T.: O'qituvchi, 1996.-200b.
- 13.Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi: O.Hasanboeva, T.: O'qituvchi, 1990.
- 14.Pedagogika. Pod red. P.I.Pidkasistogo – M.: 2003.
- 15.Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahririda. T., «O'qituvchi», 1996, 86-102-b
- 16.Pedagogika G`O'quv qo'llanma. Munavvarov A tahriri ostida. – Toshkent, O'qituvchi, 1996.

17. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy kadriyatlar. T.: Fan,
18. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-saxix. -T.: O'zbekiston, 1991
19. G'aybullaev N., R. Yodgorov. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. T., 2000, 104-110-b.
20. Tursunov L., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1998.
21. Ziyomhammadov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma -T.: Turon-Iqbol, 2006.-112 b.
22. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. T.: Sharq, 2000.
23. Zunnunov A., U. Mahkamov. Didaktika. T.: Sharq, 2006. – 125 b.
24. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. 1qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. G' M.X. Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007.-380 b.
25. Tursunov I.Y., Nishonaliev O'.N. Pedagogika kursi.-T.: O'qituvchi, 1997.
26. Xarlamov I.F. Pedagogika – M.: Gardariki, 2003.
27. G'aybullaev N., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma.-T.: 2005.-176 b.
28. O'zbek pedagogikasi tarixi. Tuzuvchi muallif, prof. A. Zunnunov. - T.: O'qituvchi, 1997.- 512 b.
29. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. II- qism. T.: Alisher Navoi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.-304 b.
30. Xoshimov K va boshqalar O'zber pedagogikasi antologiyasi Toshkent o'qituvchi 1995yili 137-bet
31. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (so'zboshi muallifi B. Tuhliev). — T.: Yulduzcha,
- Internet saytlar:
1. www.pedagog.uz
 2. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
 3. www. tdpu.uz
 4. www. edu. uz

MUNDARIJA

KIRISH	3-8
I-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	9
I.1. O'quvchilar aqliy tarbiyasini shakllantirishda Sharq allomalari qarashlaridan foydalanish.....	9-22
I.2. O'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni.	22-27
II-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O`QUVCHILARIDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI	27
II.I. O`qish darslarida aqliy tarbiyani shakllantirish texnologiyasi.....	27-38
II.2. Sinfdan tashqari o`qish darslarida aqliy tarbiyani shakllantirish yo`llari.....	38-57
XULOSA VA TAVSIYALAR	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	58-59
ILOVALAR	